



ON THE INTERPRETATION OF DEMOCRACY IN THE HISTORY OF NATIONAL THINKING

Dilrabokhon Abdurashidovna Khudoynazarova

Independent Researcher

Fergana State University

Fergana Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: democracy, historical interpretation, modern society, time and space, history, progress, transformation, factors, youth, worldview, humanism, idea, ideology, culture, cultural processes, causes and consequences.

Received: 01.06.26

Accepted: 02.06.26

Published: 03.06.26

Abstract: This article examines the interpretation of democracy in the history of national thought, analyzes the content of the idea of democracy in modern society, and reveals the historical development of the democratic idea in contemporary social contexts. It also explores the historical evolution, transformation, and outcomes of the concept of democracy in the present day, as well as identifies the impact of these developments and transformations on social and cultural processes. Based on the findings, proposals and recommendations have been developed to enhance understanding of the historical development and transformation of the idea of democracy in modern society and its influence on contemporary social and cultural dynamics.

MILLIY TAFAKKUR TARIXIDA DEMOKRATIYA TALQINIGA DOIR

Dilraboxon Abdurashidovna Xudoynazarova

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: demokratiya, tarixiy talqin, zamonaviy jamiyat, vaqt va makon, tarix, taraqqiyot, transformatsiya, omillar, yoshlar, dunyoqarash, insonparvarlik, g'oya, mafkura, madaniyat, madaniy jarayonlar, sabab va oqibat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy tafakkur tarixida demokratiya talqinini tadqiq etish, zamonaviy jamiyatda demokratiya g'oyasining mazmunini tahlil qilish, zamonaviy jamiyatda demokratiya g'oyasining tarixiy taraqqiyotini ochib berish,

bugungi kunda demokratiya g'oyasining tarixiy taraqqiyoti va transformatsiyasi va natijalarini o'rganish, zamonaviy jamiyatda demokratiya g'oyasining tarixiy taraqqiyoti va transformatsiyasi va ularning ijtimoiy, madaniy jarayonlarga ta'sirini aniqlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

О ТОЛКОВАНИИ ДЕМОКРАТИИ В ИСТОРИИ НАЦИОНАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ

Дилрабохон Абдурашидовна Худойназарова

Самостоятельный соискатель

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: демократия, историческая интерпретация, современное общество, время и пространство, история, развитие, трансформация, факторы, молодежь, мировоззрение, гуманизм, идея, идеология, культура, культурные процессы, причина и следствие.

Аннотация: В данной статье исследуется трактовка демократии в истории национальной общественной мысли, анализируется содержание идеи демократии в современном обществе и раскрывается историческое развитие демократической идеи в современных социальных условиях. Также изучаются историческая эволюция, трансформация и результаты развития идеи демократии на современном этапе, а также определяется влияние этих процессов и преобразований на социальные и культурные процессы. На основе проведенного исследования разработаны предложения и рекомендации по более глубокому пониманию исторического развития и трансформации идеи демократии в современном обществе и её воздействия на современные социальные и культурные процессы.

Kirish. O'zbek milliy tafakkur shakllanish tarixida ham ma'naviy merosimiz Avesto, uning vujudga kelishi va u bilan bog'liq tarixiy shaxslar tarixi katta ahamiyat kasb etgan. Sharq va G'arbning madaniy merosi, falsafasi va adabiyoti tarixini qiyosiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilgan o'zbek olimasi Fozila Sulaymonovanning ilmiy tadqiqotida «zoroastrizm jahon miqyosidagi eng qadimgi dinlardan bo'lib, akademik S.F.Oldenburgning aytishiga qaraganda «zoroastrizm insonning er yuzidagi hayotini engillatishga, uni baxtiyor qilishga

qaratilgan eng oqilona dindir» [1, 23],-deyiladi. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda tugal holda shakllanib, o'zida Markaziy Osiyo xalqlarining eramizdan avvalgi to'rt ming yillik tarixini ifodalagan «Avesto» mohiyatan demokratik g'oyalarni mujassamlashtirgan falsafiy tizimni ifodalaydi.

Zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyo ibtidoiy davrida mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga nisbatan progressiv, monoteistik ta'limotdir. U behuda qon to'kuvchi, qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik hujumlarini qoralab, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadi. Umuman moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblab, xayrli ishni, axloqli, odobli bo'lishni turli diniy aqidalarga mutlaq amal qilishdan ustun qo'ygan [1, 26].

Mafkura jihatidan zardushtiylik g'oyat kuchli ta'limot bo'lib, u insonning ma'naviy, iqtisodiy va madaniy hayotini mutanosib holda progressiv rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega edi. Ushbu ta'limotdan maqsad dunyoda abadiy baxtli hayotni o'rnatish va unda har bir insonni farovonlikda yashashi bo'lgan. Zardushtiylikda eng noyob g'oyalardan biri inson va tabiatni bir butun mohiyat deb bilishdir. Unga ko'ra tabiatni suiiste'mol qilish evaziga undan o'zini ayri holda tasavvur qilib hayot kechirganda, inson farovonlikka erisha olmaydi. «Zardushtiylik tabiatni, er-suv, daraxt, o'simlik, jonivorlarni e'zozlashi, erni ishlab, sug'orib, bog'-rog', ekinzor qilishi, chorvani, ayniqsa, yilqichilikni yo'lga qo'yishi, suvni muqaddas tutishi shart edi» [1, 28]. Insoniyat global miqyosdagi ekologik muammolarga duch kelayotgan va uni hal qilish yo'llari sifatida ilg'or fan yutuqlari bilan bir qatorda demokratik taraqqiyotning muhim omili bo'lgan ekologik tarbiya vositalari va usullarini ishlab chiqayotgan hozirgi davrda,

Avestoda ogohlantiruvchi, tabiat bilan insonning yagona mohiyatligi haqidagi muhim g'oyalar mavjudligiga amin bo'lamiz.

Zardushtiylikdagi yaxshilik va yomonlik, jannat va do'zax haqidagi ta'limot avval yahudiylar dini, keyinchalik xristian va islom dinlariga o'tib, u dinlarning xususiyatlariga ko'ra qayta ishlanadi. Undagi ontologik, gnoseologik ta'limotlar, panteistik qarashlar esa antik davr faylasuflari Fales, Aflotun, Aristotel ta'limotlarining genezisi sifatida rol o'ynagan. Bu fikrlar keyinchalik G'arb va Sharqning butun falsafiy fikr taraqqiyotida o'z aksini topgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Demokratiya haqidagi ilk falsafiy yondashuvlarni Perikl, Suqrot, Platon va Aristotel merosida uchratamiz. Ularda inson huquqlari va demokratik

boshqarishning fundamental falsafiy huquqiy masalalari tadqiq etilgan. Mazkur ilmiy, siyosiy, falsafiy ahamiyatga ega g'oyalar biz uchun ham e'tiborlidir.

Jahonda demokratiya va demokratik taraqqiyotni ta'lim, oila, turmush tarzi, iqtisodiy munosabatlar, xalqaro diplomatiya, harbiy soha bilan bog'liq ayrim muammolar ham tadqiq etilmoqda. Bu o'rinda A.Shveyser, J.Bodriyyar, P.Byukenen, L.Flint, S. de Bovuar, E.Xoffer, Ye.N.Karr, J.Adams, L.S.Allen, Allan va Barbara Piz, B.Berlson kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini keltirish mumkin.

Muammoning umumiy nazariy masalalarini MDH olimlaridan S.S.Alekseyev, T.A.Alekseyeva, K.S.Gadjiyev, S.M.Yeliseyev, A.A.Kazansev, I.A.Krasin, S.A.Lansov, V.N.Nersesyans, G.V.Pushkareva, G.V.Tavokin, M.Ya.Ostrogorskiy, S.Ye.Zaslavskiy, V.Ye.Chirkin, L.A.Nudnenko, V.P.Pugachev, A.I.Solovyev, V.P.Ilin, Ya.V.Chesnov, A.I.Prigojin kabilar o'rganishgan.

O'zbekiston Respublikasida demokratiya va demokratik taraqqiyotning ayrim fundamental va falsafiy-huquqiy muammolari Birinchi Prezident I.A.Karimovning asarlari va chiqishlarida yoritilgan. Ularda bozor va demokratiya, davlat boshqarishining konstitusiyaviy asoslari, hokimiyatning uchga bo'linishi, milliy parlament va fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy sud-huquq tizimi, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga oid huquqiy bazaning yaratilishi, saylov instituti, mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimini barpo etish, siyosiy plyuralizm, iqtisodiy demokratiyaga oid strategik fikrlar bayon qilingan. Ular Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlarning tarixiy-tadrijiy, obyektiv va falsafiy-huquqiy asosidir. Prezident Sh.M.Mirziyoyev demokratik islohotlarni yangi bosqichga ko'tarish haqidagi asarlarida, qaror va farmonlarida ana shu tarixiy-tadrijiy, obyektiv va falsafiy-huquqiy asosga tayanadi, Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan Harakatlar strategiyasi (2017) va Taraqqiyot strategiyasi (2022) da belgilangan maqsad va vazifalar ham ana shu milliy demokratik tajribalarning evolyutsion davomidir.

O'zbekistonda demokratiya va demokratik taraqqiyotning ayrim ilmiy va falsafiy-huquqiy masalalari siyosatshunoslik fanlari doktorlari, professorlar R.Jumayev, S.Jurayev, T.Jurayev, A.Qo'chqorov, Sh.Paxruddinov, M.Qirg'izboyev, Sh.G'oyibnazarov, faylasuf olimlardan akademik A.Valiyev, S.Shermuhamedov, E.Yusupov, falsafa fanlari doktorlari, professorlar A.Abdusamadov, V.Alimasov, H.Aliqulov, E.Bobomuradov, F.Juraqulov, A.Yo'ldoshev, S.Norqulov, Sh.Mamadaliyev. K.Javakova, V.Dubkov, B.To'ychiyev, I.Saifnazarov, A.Qodirov, Z.Qodirova, A.Mirzayev, O.Musayev, F.Musayev, A.Mirzayev, X.O.Shayxova, N.Nishonova, S.Berdiqulov, J.Mavlyanov, J.Matkarimova, fan nomzodlari M.Qaxxarova, M.Ataullayev,

huquqshunoslardan akademik Sh.O'razayev, H.Rahmonqulov, A.Saidov, yuridik fanlari doktorlari, professorlar H.Boboyev, M.Boydadayev, Sh.Jalilov, Z.Islomov, G.Matkarimova, S.Adilxodjayeva, M.Mirxamidov, X.Odilqoriyev, F.Raximov, A.To'laganov, E.Xalilov, O.Xusanov, R.Hakimov, Sh.Yakubov, iqtisodiyot yo'nalishida akademiklar M.Sharifxo'jayev, S.S.G'ulomov, iqtisod fanlari doktorlari, professorlar N.To'xliyev, A.Razzakov, A.Ishmuxammedov, X.Abulqosimov, kabilar tadqiq etishgan.

Natijalar va muhokama. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra Axura Mazda yaratgan olti modda– olti ma'bud Amesha Spenta(ya'ni«mangu avliyolar») quyidagilardir– Voxu-Mana(YAxshi niyat), Asha-Vahishta(O'ta adolatlilik), Spenta Armaiti (Diyonatli avliyolik), Xshatra-Vairya(Orzu etilgan qudrat, iroda), Xaurvatag(YAxlitlik) va Ameretag(Mangulik). Ularning hammasi Axura Mazdaning emanatsiyasi. Ular o'zlari yaratgan har bir moddada ishtirok etadilar [1, 30]. Bu olti modda, mangu avliyolar o'z mohiyati jihatidan butun mavjudlikning bir butunligini tashkil etadi va ta'minlaydi. Yaxshi niyat, adolat, diyonat, qudrat, iroda kabi sifatlar esa zardushtiylik ta'limotida nazarda tutilgan ezgulikning yovuzlik ustidan hukmron bo'lishining ma'naviy omillaridir. «Avesto» dan keyin uch ming yillik taraqqiyotni bosib o'tgan inson tafakkuri demokratik taraqqiyot va unga olib keluvchi g'oyalarga ana shu olti moddaning mohiyatida yotgan ma'naviy stimullar orqali etib keldi. Ular moddiylik va ma'naviylikning uyg'un holda rivojlanishi, taraqqiyoti va kelajagi uchun garov bo'lgan faktorlar sifatida rol o'ynaydi. Zamonaviy demokratik nazariyalarda qayd etilgan, yuqorida tilga olingan demokratik imperetivlar-ishonch, yaxshi niyat, idealizm aynan Zardusht ta'limotidan olingan deyishga etarli asos bo'lmasa ham, bu fikr Sharq va G'arbning gumanistik va demokratik ta'limotlari orqali«Avesto» dan hozirgi kungacha saqlanib turibdi deyish o'rinlidir.

Zardushtiylikdan Sharq tafakkuriga, o'zbek milliy dunyoqarashiga meros bo'lib qolgan muhim sifatlardan biri inson erki, ozodligi, o'zligini vatan, tuproq, o'ziga tegishli bo'lgan hudud ozodligi orqali idrok etishdir.

O'zbek xalqi tarixida milliy qahramonlar sifatida gavdalangan Muqanna, Shiroq, Tumaris, Spitamen kabi tarixiy shaxslar bilan bog'liq tarixiy voqealar milliy o'tmishimizda vatan sha'ni, shavkati, or-nomusi masalasi har qanday omildan ustun qo'yilgani haqida darak beradi. Birgina Tumaris misolida keltiradigan bo'lsak, «badiiy adabiyotlarda massagetlar malikasining so'nmas obrazi ming yillar davomida asardan asarga, Herodotdan keyin grek, rim adiblari asarlariga, va, nihoyat, V asrda yashagan tarixchi Pavel Oroziyning«Jahon tarixi asariga o'tdi», deb tahlil qilar ekan F. Sulaymonova, Tumaris obrazi Dante Aligeri ijodida ilohiylashtirilgani

hakida yozadi: «Shunisi hayratomuzki, oʻrta asr shoiri xristianlar uchun gʻayridin hisoblangan massagetlar malikasini Aʻrofga joylashtirib, xristian din arboblari, Rim papasi, kardinal, episkop va qirollardan ustun qoʻyadi. Ularni esa doʻzaxga, hatto Papani doʻzaxning sakkizinchi qavatiga joylashtiradi. Tumaris adolat, ozodlik, mustaqillik uchun kurashgani tufayli maʼjusi boʻlsa ham aʻrofdan joy oladi» [1, 91].

Markaziy Osiyo, xususan, oʻzbek xalqi tarixini yoritishdagi etnoslar nazariyalarida oʻzbeklar koʻchmanchi va oʻtroq tarzda yashovchi xalqlardan tashkil topgan etnik birlik deb eʼtirof etiladi. Markaziy Osiyoning mustaqil davlatlaridagi aksariyat ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlarda Markaziy Osiyo xalqlari bir butun tarzda koʻchmanchi xalqlardan tashkil topgan degan fikr mavjud. Biz masalaning boshqa tomoniga eʼtibor qaratmoqchimiz. Markaziy Osiyo xalqlari mentalitetining tarixiy ildizlarini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlarda koʻchmanchilarning tafakkur tarzi tahlili nomadik dunyoqarash deb olinib, uning xususiyatlari, psixologik ildizlari «Avesto» va undan keyingi davrdagi ijtimoiy-maʼnaviy taraqqiyotning xarakteri va kayfiyatiga aynan mos tushadi: «Koʻchmanchilik dunyoqarashi makoniy va mushohadaviy boʻlib, bu boy tasavvur tufayli borliqni idrok etishdagi boʻshliq insonni dunyoning mohiyatini anglashi, yuqori va nozik hissiyot orqali oʻzining dunyo bilan, yaratuvchisi sifatida tabiat bilan yagona birlikni his qilishi orqali toʻldiriladi... Avlodlarning vorisligi ajoyib tarzda idrok va falsafiy kayfiyatni oʻzida ifodalagan xotirada aks etgan. Xotira tirik bogʻlovchi ip sifatida chuqur koʻchmanchi ong va madaniyat taraqqiyoti oʻlchovi sifatida maydonga chiqadi» [2].

Markaziy Osiyoga qilingan aksariyat bosqinchilik yurishlari va missionerlik harakatlariga mahalliy xalq tomonidan boʻlgan qarshiliklar bilan birga maʼnaviy, mafkuraviy sohada ham kuchli qarshilik mavjud edi.

Zardushtiylikdan keyin uning taʼsirida shakllangan va uning koʻp elementlarini oʻzida birlashtirgan moniy, hurramiya harakatlarida ijtimoiy adolat, farovonlik, tenglik, ideal baxt kabi demokratik gʻoyalari etakchi omilligicha qoldi. Keyinchalik dunyoda yagona imperiyani yaratmoqchi boʻlgan Aleksandr Makedonskiy bosqini, tarixiy vaqt nuqtai nazaridan deyarli ketma-ket sodir boʻlgan arab bosqini oddiy xalq orasidagina emas, ziyolilar muhitida ham missionerlik siyosatini singdirishi bilan mazmun mohiyat jihatidan oʻz maqsadlariga ancha vaqtlargacha erisha olmadilar, «bu davr Oʻrta Osiyo, Eron, Xuroson madaniyati, fani, adabiyoti va sanʼatining arablar tomonidan bosib olingan mamlakatlarga oʻta keng tarqalgan va bu madaniyat arablar tomonidan oʻzlashtirilgan davr edi. Siyosiy hokimiyat arablar qoʻlida boʻlgani bilan madaniy hukmdorlik ular qoʻlida edi» [3, 88].

Arab bosqini Markaziy Osiyoda mahalliy diniy siqib chiqarishi barobarida islom madaniyati yunon, eron, hind madaniyati bilan boyigan, Markaziy Osiyo madaniyati, ilm-fani bilan takomillasha bordi. Abu Nasr Forobiy (873-950) ning «Risola fi oroi ahl al-madinat al-fazila» («Fozil shahar aholilarining fikrlari») asari jamiyat haqidagi falsafiy qomusiy asar boʻlib, faqat grek olimlari Aflotun va Aristotelning fikrlaritaʼsirida yozilgan boʻlmay, YAqin SHarq, Markaziy Osiyoning ham progressiv taʼlimotlarini oʻzida sintezlashtirgan. Oʻz davrining ensiklopedik olimi boʻlgan Forobiyning ijtimoiy-falsafiy yoʻnalishdagi bu asari utopik xarakterdagi asar deb baholangan boʻlsa-da, undagi demokratik gʻoyalar oʻsha davr kishilarinigina emas, butun bir kelajak avlodni umuminsoniy demokratik tarakqiyotga yoʻnaltiruvchi kuchga egaligi mohiyat eʼtibori bilan koʻrinib turibdi. Mazkur asar farovon jamiyat haqidagi utopik nazariya boʻlib, bugungi kun oʻzbek demokratik tafakkur taraqqiyoti uchun muhimlaridan biri diniy bagʻrikenglik haqidagi fikrlardir: «...fazilatli shaharlarning turli xalqlari yagona haq taolloga ishonib, yagona saodatga va yagona maqsadga intilsalar-da, ularning dinlari turlicha boʻlishi mumkin... Aholilarining diniy eʼtiqodlari xurofiy, xato dunyoqarashlarga asoslangan shaharlarni jaholatdagi yoki adashgan shaharlar deymiz» [4, 168-169].

Forobiyshunos olim M.Hayrullaev allomaning demokratik qarashlari haqida«insonparvar mutafakkir sifatida kelajak jamiyatning urushlar, qashshoqlik, ekspluatatsiyasiz boʻlishini, umumiy baxt, adolat gʻalabasi, huquq tengligi, doʻstlik, oʻzaro yordam, bir-birini hurmatlash, yuksak madaniyat boʻlgan er kurrasini yaxlit jamiyat sifatida tasavvur etadi» [5, 252],-deydi. Forobiyning bu fikrlari«sharqda rivojlangan va umuminsoniy madaniyat poydevorini yaratgan buyuk olimlar Beruniy, Ibn Sino, Ibn Tufayl, al-Qiftiy, Ibn Rushd va boshqa koʻplab olimlar ijodining shakllanishi va rivojida» [1, 229] tamal toshi boʻldi. Buning boshqa bir tomoni-Forobiy taʼlimotida ismoiliylik va mutaziliylik kabi hukmron sinfnining qarashlariga qarshi bidʼat taʼlimot sifatida kelib chiqqan yoʻnalishlar xususiyatlari kuchliligi bilan bogʻlangan edi. Ismoiliylik va mutaziliylikda Alloh hamda inson erki masalasi falsafiy asosda qoʻyilgan boʻlib, insoniyat taraqqiyotida aql va ongning roliga katta eʼtibor berilgan, Alloh erkin insonlarga nisbatan masʼuliyat his etishi lozim degan fikr etakchi edi. Bu taʼlimotlar taʼsirida 938-yili Basrada «Ixvon as-safo» nomi ostida birlashgan erkin fikrlovchi olimlar guruhi kelib chiqadi. Forobiyning oʻzidan keyingi Sharq hurfikr tafakkur taraqqiyotiga taʼsiri aynan ana shu jamiyat bilan bogʻliq boʻlib, «Forobiy asarlari «Ixvon as-safo» yaratgan ilmiy risolalar jamlamasi paydo boʻlishiga ilmiy zamin hozirladi» [1, 231].

Forobiyning islom olamida, tarixida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan bu guruhga ta'siri shundan iborat ediki, islom dini rasmiy din sifatida hukmron guruhning quroliga aylangach, unga qarshi bo'lgan hurfikr yo'nalishdagi bid'at jamoalarga Forobiy ijodiyotining barcha antik dunyo va SHarq ilm fanidagi sintezlashgan progressiv fikrlari g'oyaviy yo'nalish vazifasini o'tadi. Ixvon as-sofo o'rta asr islom olamining demokratik tafakkur yo'nalishini hosil qilishda, shu asosda ilm-fan, madaniyatni rivojlantirishda, islom dinining demokratik tamoyillar bilan boyitishda katta hissa qo'shgan jamoa edi. Pok birodarlar guruhi deb atalmish Ixvon as-safo jamoasi yaratgan ilmiy-falsafiy ta'limotlar Sharqning Abu Rayhon Beruniy, Abu Bakr ar-Roziy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, ibn Ro'shid kabi allomalari ijodining aynan gumanistik, demokratik ruhda shakllanishiga, ularning ijodida inson omili va inson erki masalalari etakchi o'rin tutishiga sabab bo'ldi.

O'zbek milliy ma'naviy tafakkur taraqqiyotiga, demokratik tafakkur taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan allomalardan biri, dunyo ilm fani taraqqiyotida muhim o'rin tutgan alloma Abu Ali Ibn Sinodir (980-1037). Ibn Sino ijodida gumanistik xarakterdagi demokratik g'oyalar o'ziga xos xususiyatga ega. U Forobiy falsafiy ta'limoti kabi sotsiologik konseptual xarakter kasb etmagan. Ibn Sinoda ko'proq inson ozodligi va farovonligi masalalari ma'naviy ruhiy omillar bilan o'lchanadi. Allomaning bizgacha etib kelgan ikki yuz qirqta asaridan aksariyati tibbiyot va falsafa sohasiga tegishlidir. Mazkur asarlarning mohiyatida inson farovonligi, baxti, komoloti, ruhiy takomillashuvi orqali jismoniy kamolotga erishuvi va natijada ruhan-jisman sog'lom insonning oliy baxt, ilohiy borliqni anglash saodati g'oyasi yotadi. SHuning uchun ham Ibn Sinoning aksar tib sohasidagi asarlari falsafaga oid ham deb e'tirof etilgan. Uning «Kitob ash-shifo», «Kitob an-najot», «Donishnoma» kabi falsafiy xarakterga ega bo'lgan yirik asarlaridan tashqari «Al-Ansof», «Fi-l-hudud», «Hikmat aloiya», «Al-hikmat al-mushriqiya», «Uyun al-hikma», «Al-Mabohisot» falsafiy asarlari mavjuddir. Bundan tashqari allomaning «Hayy ibn Yakzon», «Yusuf qissasi», «Qissai Salomon va Ibsol» deb nomlangan falsafiy qissalari ham mavjud bo'lib, ular chuqur majoziy, allegorik xarakterga ega.

Hozirgi kunda demokratik jamiyatning muhim ma'naviy omillaridan biri, unda yashayotgan insonlarning ruhiy sog'lomligi va komilligi deb e'tirof etilayotgan bo'lsa, Ibn Sino falsafasida Sharq falsafiy tamoyillari xususiyatlari kuchli bo'lib, axloq, odob, inson psixologiyasi masalalari jiddiy tahlil qilingan. Bu masalalar unda ishq faktori orqali amal qiladi, ya'ni «Risola fil-ishq» asarida yozishiga ko'ra «boshqariladigan har bir alohida javhar, tabiatiga ko'ra, Sof xayrning yagona javharidan yaralgan juz'iy (individual) xayr hisoblanmish o'z takomiliga intiladi... barcha mavjud ashyolar tabiiy istakka-tug'ma ishqqa egadirlar» [6, 84].

Nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo ilm fani tarixida ensiklopedik miqyosda meros qoldirgan Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ijodiyotidagi jamiyatga oid fikrlarda ham o'z davri uchun g'oyat progressiv bo'lgan demokratik yo'nalishdagi qarashlarni ko'rish mumkin. Aytish mumkinki, Beruniy aniq fanlar sohasida insoniyatga qanchalik yangilik va kashfiyotlar bergan bo'lsa, ijtimoiy fan sohalarida ham insoniyatga shunchalik xizmat qildi. Uning ijtimoiy fan sohalarida qilgan muhim ishlari Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq xalqlari qadimiy davr va o'rta asrlar tarixini ilmiy tadqiq etish, ularning etnografiyasi, madaniyati, e'tiqodi va an'analari haqida, geografik muhitning o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan ma'lumotlar berish bilan birga, kishilik jamiyati tarixiga ratsional yondashish edi. Beruniyning ijtimoiy qarashlarida geografik omil g'oyasi jamiyatga bo'lgan diniy qarashlar va aqidalar kuchaygan bir davrda progressiv ta'limot edi. Bu ta'limotga asosan jamiyat kishilarning birlashishga bo'lgan ehtiyojlari natijasi bo'lib, bu jamiyat kishilarining rangi, tashqi ko'rinishi, xarakteri ular yashayotgan geografik muhit xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shubhasiz, Beruniy ta'limotida kishilik jamiyatining farovonligi va tengligi masalasi ham ko'rib chiqilgan, unga asosan ilm-fan insonni farovonlikka olib chiquvchi, jamiyat rivojini tezlashtiruvchi faktordir, hukmdorning vazifasi yuqori va quyi tabaqa vakillari o'rtasida adolat o'rnatish, kuchli va o'jizlar o'rtasida tenglikni barqaror etishdan iborat. Allomaning fikricha, jamiyat tinchligining garovi tenglik va ijtimoiy adolatdir, tenglik hukmron erda qayg'u va nohaqlik barham topadi. Beruniy «Minerologiya» asarida «jamiyatdagi tabaqalar, olijanoblik, olihimmatlik, mardlik kabi xususiyatlar faqat aslzodalarga taalluqli, degan chirkin tushunchani keskin tanqid qilib rad etadi» [6, 84].

O'zbek milliy ma'naviy merosidagi falsafiy-demokratik tafakkur shakllanishida ekzistensializm g'oyasi yo'nalishida ijod etgan olim Umar Xayyomdir (1048 – 1132). Aniq fanlar sohasida o'z davrining etuk olimi matematigi, astronomi, tabibi bo'lgan Umar Xayyom bu sohalaridagi ijodiy merosi qanchalar muhim va noyob bo'lmasin bizning davrimizga shoir, faylasuf sifatida yetib keldi. Xolbuki, «o'rta asr mualliflari Xayyomni olim nomi qatoriga quyidagi faxrli ilmiy unvonlarni qo'shib gapirishgan: o'z asrining allomasi, haqiqatlar isboti, grek fani bilimdoni, G'arb va Sharq faylasuflari shohi, Xuroson imomi, hakim qadimgi mualliflardan hech biri Xayyomni shoir deb atamaydi...Xayyomning ijtimoiy maqomi olimlik maqomidan iborat edi» [7, 12]. Lekin biz asosiy e'tibor qaratishni istaganimiz, Xayyom ijodidagi ilg'or, mustaqil, isyonkor fikrlar uning kichik falsafiy asarlaridan ko'ra ko'proq ruboiylarida aks etganidir. O'z davriga nisbatan bunday progressiv g'oyalar Umar Xayyom ijodida inson omili bilan bog'liq. «Tadqiqotchilar yakdil xulosa qiladilarki, ilg'or-ilmiy, mustaqil, isyonkor

kayfiyat uning she'rlarida falsafiy risolalarga nisbatan yorqin va aniq ifodalangan» [7, 26] va shu sababli uning she'rlari tarjima orqali kirib kelishi bilan katta shuhrat qozongan. Aslida Xayyom ijodi tadqiqotchilari ruboiylarda ko'p tilga olingan may, sharob, jom, qadah, ko'za sifatlarini turli nuqtai nazardan tahlil etadilar. Abdurauf Fitratning «Fors shoiri Umar Xayyom» nomli maqolasida «Umar Xayyomning «may»i Xudoning mayi emas, saljuq sultonlari saroyida ichilgan uzum mayi bo'lgan», - deydi [7, 26].

Umar Xayyom ilohiyot haqidagi inson tasavvurlarini ramziy belgilar, dinlar, aqidalar orqali cheklanishiga qarshidir. Inson erki, fikrimizcha, Xayyom nazdida ilohiyotni qalb amri bilan idrok etish va uning insonga bo'lgan rahmat va karamlarini turli cheklanish orqali tushuntirishlardan kengroq ekanini anglay bilish bilan belgilanadi.

Umar Xayyom ijodida inson yaratilishi, voqe'lik va intiho haqidagi izoterik fikr yo'nalishini kuzatish mumkin. Bunday uslub mutasavvuf adabiyotiga xos bo'lib, uni keng va yorqin misolini shoir Navoiyning «Lison ut-tayrida» ko'rish mumkin. Holbuki, Abdurauf Fitratning yuqorida nomi tilga olingan maqolasida Umar Xayyomning tasavvufdan butunlay yiroqligi ta'kidlanadi va allomaning juda ko'p ruboiylariga ko'ra bu fikrni e'tirof etish mumkin: May ichib, yaxshilar qo'rin qurshamoq-So'fiyavash javrashdan ming bor yaxshiroq, So'fiy dili lim-lim jahlgga to'la Boshga chiqar qultum may yuta qolsa. Yuqorida keltirilgan misollardan anglanadiki, Umar Xayyom falsafiy qarashlarida dunyoning yaratilishi, uning tartib-qoidalari, tangri, dinlar, ta'limot va oqimlarga nisbatan o'z fikri va xulosalariga ega. Unda ko'proq inson tafakkurini bir qolipda shakllantirishga qaratilgan ramziy belgilar, aqidalar, da'vatlarga qarshi e'tiroz, isyon yotadi. Umar Xayyom inson va tangri, inson va tabiat, inson va voqe'lik bog'liqligini har qanday cheklanish va diniy qarashlardan xoli holda kengroq tushunishga, mushohada etishga chaqiradi. Aql va qalb amri bilan ilohiyotni idrok etish insonga savob va gunoh chegarasi haqidagi fikrlar bilan hayotini qo'rquvda o'tkazilishidan ko'ra kuproq narsa berishini, insonning o'z qalbini tushunishga yo'l ochishini ta'kidlaydi. Umar Xayyomning bu kabi nodir fikrlari o'z davrida reaksiyon islom mafkurasi shakllanayotgan bir paytda inson erki va ozodligi masalalarini ilgari surdi Sharq G'arb hurfikrlilik ta'limotiga ta'sir ko'rsatdi.

Milliy davlatchilik shakllanishi tarixida asarlari dasturulamal sifatida olib qaralgan yirik davlat arbobi, sohibqiron Amir Temur (1336-1405) «Tuzuk» lari eng noyob ma'naviy merosdir. U o'rta asr SHarqining barcha qonun qoidalari bitilgan ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy asardir. Temur bu asarda o'z merosxo'rlariga bir butun saltanat bilan birga uni saqlab qolishning yo'llarini ham yozib qoldirgan. Ushbu kitob mohiyatida qanday qilib adolatli, farovon davlat qurish yo'llari, uning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy asoslari bayon etilgan:

«Adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdand rozi etdim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim.

Amir Temur davlatda adolat tamoyillarining ustun bo‘lishida har ishdan ogohlik va ichki tartibga hushyor munosabatda bo‘lish katta rol o‘ynashini yaxshi tushungan, uning yozishicha: -«Turli mamlakatlardagi sadrlar va qoziylarga shariatning asosiy talablari qanday bajarilayotganligi xususida menga xabar qilib turishni buyurdim. Shunga o‘xshash har el va har shaharda sipoh va raiyat orasida urf-odatlariga oid janjalli ishlar haqida menga ma’lumot berib tursin deb adolat amirini tayinladim» [8, 58].

O‘zbek tili va ma’naviy qiyofasi, mental tafakkur tarzi, madaniyatining shakllanishida alohida o‘rin tutgan alloma Alisher Navoiy (1441-1501) ijodiyoti o‘zbek demokratik tafakkur taraqqiyotida gumanistik ijod namunasi. Uning ijodi asosida insoniyat jamiyatining asosiy faktori bo‘lgan inson va uning baxt-saodati, ma’naviy qiyofasi masalasi yotadi. Alisher Navoiy «Badoyi’ ul-bidoya», «Navodir un-nihoya» devonlarini, «Hamsa» nomli besh dostonidan iborat asarini, so‘fiylar haqidagi «Nasoyim ul-muhabbat» tazkirasini, «Xazoyin ul-maoniy» devonini, «Mahbub ul-qulub», «Tarixi anbiyo va hukamo», «Siroj ul-muslimin», «Muhokamat ul-lug‘atayn» asrlarini, «Lison ut-tayr» falsafiy dostonini va yana boshqa bir qancha asarlarni yozib qoldirgan. Adib qaysi sohada ijod etishidan qat’i nazar uning asarlari mohiyatida insonparvarlik, ma’rifatparvarlik, tolerantlik, do‘stlik va muhabbat masalalari yotadi. O‘zbek demokratik tafakkur taraqqiyotida shakllangan xususiyatlar Alisher Navoiy g‘oyalari va fikr rang-barangligi bilan boyidi. Alisher Navoiy o‘z davrigacha bo‘lgan tasavvuf falsafasidagi panteistik g‘oyalarni gumanistik mafkuraga xizmat qildiradi oldi, bu sohada go‘zal namunaviy asarlar yaratib qoldirdi. U o‘zining bir g‘azalida: Kimki bir ko‘ngli buzuqni xotirin yod aylagay, Oncha borki ka’ba vayron bo‘lsa obod aylagay [9, 431], - deydi. Demak, Navoiy nazdida inson qalbi musulmon olami uchun eng muqaddas go‘sha hisoblangan Ka’batullohdan ham muqaddasroqdir. Uning insoniyat jamiyati, ideal davlat, farovonlik haqidagi ideal g‘oyalari ham ana shu e’tiqoddan kelib chiqadi. Alisher Navoiy falsafasida ideal davlat haqidagi siyosiy nazariya komil inson to‘g‘risidagi axloqiy nazariya bilan uzviy bog‘liqlikda olib qaralgan. Bu ta’limotga asosan ideal farovon davlat bu davlatda yashovchi kishilarning komil ma’naviyatisiz mumkin emas. Demak, ilg‘or G‘arb demokratik nazariyalarida, faqatgina XIX-XX asrlarda shakllangan bu kabi nazariya Navoiy davrida o‘zining konsepsiya shaklidagi ko‘rinishiga ega edi. Alisher Navoiy yaratgan ideal jamiyat haqidagi ta’limotni yana shuning uchun ham konsepsiya deb olib qarash mumkinki, alloma bu jamiyatga borishning amaliy uslublarini ham o‘z asrlarida badiiy obrazlar, tasvirlar orqali ko‘rsatib bera olgan. Navoiyning

gumanistik xarakterdagi demokratiya haqidagi ta'limotining buyukligi shundaki, XIV-XV asr Markaziy Osiyoda ro'y bergan uyg'onish davrining ma'naviy asosi, tamal toshi bo'lib xizmat qilgan. Mazkur davrdan keyin demokratik g'oyalar Zahiriddin MuhammadBobur, Boborahim Mashrab, Ogahiy ijodida rivojlantirildi. Aytish mumkinki, XVIII-XIX asrlarda Turkistondagi tanazzul davri ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga ancha salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda Nodira, Uvaysiy, Dilshod Barno, Anbar Otin kabi shoira ayollar ijodida mavjud tuzumga isyon, insoparvarlik, ma'rifatparvarlik ruhidagi demokratik fikrlarni kuzatish mumkin.

Xulosa. Uch ming yillik tarixga ega bo'lgan o'zbek milliy ma'naviy merosi shu narsani ko'rsatib turibdiki, demokratik fikr taraqqiyoti o'zbek milliy tafakkur tarzida o'zining eng prinsipial ko'rinishlarida mavjud bo'lgan. Aytish mumkinki, demokratiya beshigi deb e'tirof etib kelingan G'arb olami demokratiyaning g'oyaviy mohiyati masalalariga faqatXX asrda e'tibor qaratishni boshlagan bo'lsa, bu masalalar SHarq ma'naviyat maktabining beshigidan boshlab ko'rila boshlangan edi. «Demokratiya va so'z erkinligini gohida G'arbnig mevasi deb taqdim etishadi. Bu yolg'on. Demokratiya butun insoniyat tafakkurining mevasidir. Demokratiyaning Demokrit, Platon, Lokk, Russo, Tokvil, Jeferson, Linkoln va boshqa salafllari safida men o'z ajdodlarimizni ham ko'raman. «Rost so'zlagan kishining salobati arslon salobatidan ko'ra qudratliroqdir», - degan Zamaxshariy shu safdadir. Haqqoniy axborotning davlatni boshqarishdagi ahamiyatini ta'kidlab: «Sen shohsen— agar ogohsen», - deb yozgan Navoiy demokratdir. Inson va millat huquqlari borasida: «Haq olinur, berilmas», - degan Behbudiy demokratlardandir. Osilgan Mashrab, chopilgan Nasimiy, so'z erkinligi uchun shahid bo'lgan Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy, Usmon Nosir demokratlardir» [10, 293].

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, zamonaviy jamiyatda demokratiya g'oyasining tarixiy talqini uning antik davrdan to globallashuv va raqamlashuv davrigacha bo'lgan uzluksiz evolyusiyasini ochib beradi. Bu talqin demokratiyani muayyan siyosiy shakl emas, balki inson erkinligi va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan universal ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. - Тошкент: Ўзбекистон, 1997. 23 - б.
2. Ўрманбетова Ж.К. Истоки культуры мышления народов центральной Азии// <http://www/freenet/kg/jornal/n4/jrnal4/3.htm>
3. Маршак Б.И. Согдийское серебро. – Ленинград: Питер, 1971. - С. 88.
4. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. - Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. 168-169-бетлар.

5. Хайруллаев.М. Абу Наср Фараби. М., 1982. с.252
6. Комилов Н. Тафаккур қарвонлари. -Т: Маънавият, 1999. 84-б.
7. Ворожейкина З.Н. Омар Хайям и хайямовские четверостишия//Под редакции Андреева Ю.А. Колл.ав. Омар Хайям.-М,: Советский писатель, 1986. –С.12 .
8. Темур тузуклари. - Тошкент: Гафур Гулом нашрети, 1991. 58-б
9. Алишер Навоий. Хазойил ул-маоний. Бадоеъ ул-васат. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 5-том. -Тошкент: Фан, 1990. - 431-б.
10. Баҳриев К. Сўз эркинлиги ҳақида сўз. - Тошкент: 2003. 293-б.